

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 378.147:62-052:159.954

TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA METODIK ASOSLARI**СОДЕРЖАНИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ****THE CONTENT AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS**

Madaminova Mavjuda Erkinovna 
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantirish masalasi chuqur ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Muallif texnik ijodkorlikni nafaqat kasbiy faoliyatning ajralmas qismi, balki zamonaviy texnologik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida yoritadi. Mavzuning dolzarbligi bugungi raqobatbardosh mehnat bozorida ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Texnologik ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun kasbiy-ijodiy jihatdan shakllanish jarayoni ko'plab metodik yondashuvlar, o'quv-uslubiy vositalar va psixologik tayyorgarlik elementlarini talab etadi. Umuman olganda, texnologik ta'lim yo'nalishidagi talabalarni kasbiy-ijodiy jihatdan shakllantirish uchun metodik yondashuvlar, o'quv-uslubiy vositalar va psixologik tayyorgarlik elementlarini birlashtirish zarur. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirib, zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Shuningdek, muallif tomonidan ilgari surilgan taklif va xulosalar amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, o'quv zamonaviy dasturlarini integratsiyalash, tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish, texnika asoslarini chuqur o'rgatish orqali talabada kompleks kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Maqola texnik ijodkorlikni rivojlantirish sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, amaliyotchi pedagoglar hamda ta'lim sohasidagi islohotlarga hissa qo'shishni istovchi olimlar uchun foydali ilmiy-uslubiy manba hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье всесторонне рассмотрена проблема развития технического творчества студентов с научно-педагогической точки зрения. Автор раскрывает техническое творчество не только как неотъемлемую часть профессиональной деятельности, но и как одну из ключевых целей современного технологического образования. Актуальность темы определяется необходимостью подготовки специалистов, обладающих креативным и самостоятельным мышлением, способных конкурировать на современном рынке труда. В статье системно освещаются методические подходы, учебно-методические средства и элементы психологической подготовки, необходимые для формирования профессионально-творческой личности в технологическом образовании. Представленные автором предложения и выводы ориентированы на практическую реализацию. В частности, обоснована необходимость интеграции учебных дисциплин, внедрения дифференцированного подхода и глубокого освоения технических основ. Статья представляет интерес для исследователей, педагогов-практиков и специалистов, занимающихся реформированием системы образования в области технического творчества.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the development of students' technical creativity from a scientific and pedagogical perspective. The author presents technical creativity not only as an integral part of professional activity but also as a central goal of modern technological education. The relevance of the topic lies in the growing need to train specialists with creative and independent thinking, capable of competing in today's labor market. The article systematically highlights methodological approaches, instructional tools, and psychological components essential for nurturing professionally creative individuals within the technological education framework. The author's proposals and conclusions are practically oriented and emphasize the need to integrate related subjects, apply differentiated approaches, and ensure deep knowledge of technical fundamentals. This article is a valuable resource for researchers, educators, and professionals working on educational reforms in the field of technical creativity development.

Kalit so'zlar: texnik bilim, texnologik kreativlik, ijod, ixtirochilik, kreativlik, texnik ijodkorlik, ijodiy faoliyat, texnik kreativlik, texnologik ta'lim.

Ключевые слова: технические знания, технологическая креативность, творчество, изобретательность, креативность, техническое творчество, творческая деятельность, техническая креативность, технологическое образование.

PEDAGOGIKA

Key words: *technical knowledge, technological creativity, creativity, inventiveness, creative thinking, technical creativity, creative activity, technical innovation, technological education.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida talaba shunday tayanch kasbiy bilim olishi kerakki, bu bilim unga o'zining bo'lajak kasbining doim kengayib borayotgan ufqlarini nisbatan qiyinchiliksiz o'zlashtirishga imkon berishi lozim. Har qanday kasbiy faoliyat o'z mazmuniga ega va u faoliyatni tashkil etish hamda amalga oshirish qonuniyatlari bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti bo'lgan texnologik ta'lim talabalari faoliyatining boshqa soha mutaxassisleri faoliyatidan farq qiluvchi jihatlarini aniqlashdan avval umumfaoliyatning asosiy komponentlarini qarab chiqamiz.

Hozirgi davrning o'qituvchilari oldiga qo'yilgan asosiy talablaridan biri, bu barcha o'qituvchilar uchun bir qolipda ish yuritishdan voz kechib, axborot ko'lami keskin ortib borayotgan bir davrda shunday ta'lim-tarbiya texnologiyasini tashkil etishni taqozo etadiki, natijada mashg'ulotlar jarayonida talabalar qo'yilgan masalaning eng asosiy mohiyatini anglab yetsinlar va undan so'ng mustaqil holda uning turli tomonlarini o'rganib olishga erishsinlar hamda amaliyotda ijodiy qo'llasinlar. Bu esa o'z navbatida, ijodiy ishlashni, o'quv materialini eng muhim qismining mohiyatini ularga yetkazib berishni talab etadi. O'quv materialidan eng muhimini ajratib olish, ularning mohiyatini talabalar ongiga yetkazish yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi.

O'tkazilgan ko'p sonli ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari tahlili shuningdek, amaliyot shuni taqozo etadiki, bugungi kunda ta'limni an'anaviy axborot berish tarzida tashkil etish bilan, bo'lajak o'qituvchilarda mazmunan chuqur va puxta, ko'lami jihatidan keng qamrovli, mantiqan tugal bo'lgan tizimli bilim egallashlariga imkoniyat yaratilmaydi. Talabalarda mantiqiy-mustaqillik va faol-ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarkib toptirish uchun ta'limning faollashtiruvchi omil (shart-sharoitlari, shakllari, usul va vosita) larini amaliyotga keng ko'lamda joriy etish bilan hal etish mumkinligi hech kimga sir emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, kasbiy pedagogik tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirishda uning nazariy asoslarini yaratish va ilg'or pedagogik tajribalardan keng ko'lamda foydalanish turli yo'nalishlarda tadqiq etiladi. Bu yo'nalishlarning har birida fan-texnika, texnologiyani rivojlanganlik darajasi va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablari hisobga olinadi. Texnologik ta'lim talabalari zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy talablarning mohiyatini har tomonlama his yetmaganligi sababli o'ziga yuklatilgan nihoyatda murakkab va mas'uliyatli ish hisoblangan yosh avlodni ma'naviy, ruhiy va jismoniy jihatdan kamol toptirishdek muhim vazifalarni ado eta olishni to'liq ta'minlay olmaydilar. Shuning uchun ham ijtimoiy faol, mustaqil fikr yuritadigan va ijodiy ishlaydigan pedagog kadrlar tayyorlash uchun metodik jihatdan talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi omillardan oqilona foydalanish lozim.

D.U.Ergashev tomonidan hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish tajribalarini amaliyotga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan, jamiyat va tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar, bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan, dunyoqarashi har tomonlama keng, ijodkor, mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash muammosi tadqiq etilgan. Muallif ta'lim-tarbiya ishini insonparvarlashtirish tushunchasining mohiyatini yoritish bilan birga, uni amalga oshirish shart-sharoiti va metodikasini ishlab chiqqan [4].

A.R.Xodjabayev, olib borgan pedagogik tadqiqotlariga asoslanib quyidagi xulosaga kelgan [5]: ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirishni ilmiy asoslangan o'quv-uslubiy majmuasiz tasavvur etish mumkin emas; o'quv-uslubiy majmua modeli ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bo'g'inlarini o'zida aks ettirib, uni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish ishlari bilan bevosita bog'liqdir; oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari sifatida o'quv rejalari, dasturlari, darslik hamda didaktik materiallariga qo'yilgan talablar qabul qilinadi.

"Umumtexnika fanlari va mehnat" ixtisosligi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash ishini takomillashtirish muammolari U.N.Nishonaliyevning ishlarida batafsil bayon etilgan [6].

Texnologik ta'limning o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, uning mazmunida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy, texnik va boshqa fanlar mazmunan integratsiyalashgan xolda amaliy tadbiqini topadi. Shu jihatdan olib qaraganda kasb ta'limi o'qituvchisi turli fanlar mazmunini o'zida mujassamlashtiruvchi mutaxassis hisoblanadi. Chunki, texnologik ta'lim amaliyotini fan-

texnika yutuqlari va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular mehnat qurollari, mexanizm va mashinalarning tuzilishi, ishlash tartibini, bajaradigan texnologik jarayonlarning kechishini muayyan qonuniyatlarga asoslanib tushuntirilmog'i lozim. Demak, bu o'z navbatida o'qituvchidan fan asoslarini yuqori darajada egallagan bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, qator umumtexnika (nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, mashina detallari, issiqlik texnikasi, gidravlika va shu kabi) fanlarini ham puxta bilishni talab etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan ilmiy-tahliliy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy-ijodiy jihatdan shakllantirish jarayoni o'ziga xos metodik va psixologik talablarni taqozo etadi. Tahlillar quyidagi muhim jihatlarni aniqlashga imkon berdi:

1. Talabalarni hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida texnologik ta'lim qamrovini kengaytirish, uni xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari ehtiyojlariga moslashtirish zarur.

2. Talabalarni tayyorlashda ularning individual qiziqishlari va jinsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash samarali natija beradi.

3. O'quv reja va dasturlarni fan-texnika yutuqlari hamda istiqbolli ishlab chiqarish texnologiyalari asosida takomillashtirish talab etiladi.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni faollashtiruvchi ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish lozim.

5. Talabalarining mustaqil ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

6. Mazmunan yaqin va bir-birini to'ldiruvchi fanlarni integratsiyalash orqali takrorlanishlarga yo'l qo'ymaslik, ularni yaxlit tizim sifatida o'qitish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, kasb ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida keng qamrovli texnik bilimga ega bo'lish, yuqori diqqat va mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlik, fazoviy tafakkur va psixologik barqarorlik asosiy omillar sifatida ajralib turadi.

Texnologik ta'lim samaradorligi, nafaqat texnik va metodik tayyorgarlikka, balki o'qituvchining ijtimoiy-kasbiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etish qobiliyati, kasbiy intilishlari, o'zini baholash darajasi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari va psixologik sifatlarining yuksakligiga ham bevosita bog'liqdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- Texnologik ta'lim jarayonida talabalarni kasbiy-ijodiy jihatdan shakllantirish uchun o'quv reja va dasturlar zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida takomillashtirilishi lozim.

- Tabaqalashtirilgan yondashuv orqali talabalarining individual qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

- Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarni faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Turdosh fanlarni integratsiyalash takrorlanishlarga chek qo'yib, o'quv jarayonini yaxlit va izchil tashkil etish imkonini beradi.

- Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisida fazoviy tafakkur, ijodiy yondashuv, yuqori mas'uliyat va psixologik tayyorgarlik darajasining yuksak bo'lishi kasbiy muvaffaqiyatning asosiy shartidir.

Mazkur xulosalar texnologik ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassis sifatida yetkazishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 5 jild, -B. 687.

2. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – М., 1975. -502 с.

3. Sharipov Sh.S. Talabalar kasbiy ijodkorligi uzviyiligi ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.: Ped. fan. dok. ... avtoref. -T.: 2012.-13 b.

4. Шадриков В.Д. Проблемы профессиональных способностей// Психологический журнал – М.: 1982. -Т. 2. -№ 5. - С. 13-26.

PEDAGOGIKA

5. Xodjaboyev A.R., Yusupov R.M., Hamidov J.A., Aliqulov S.T., Anarqulova G.M., Yarlakabov U.M. Mashina detallari kursi bo'yicha multimediyali elektron o'quv qo'llanma. Davlat patent idorasi guvohnomasi № DGU 01470 T.: 2008.
6. Нишоналиев У.Н. Формирования личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы – Т.: Фан, 1990. -88 С.
7. Xodjaboyev A.R., Yusupov R.M., Hamidov J.A., Aliqulov S.T., Anarqulova G.M., Yarlakabov U.M. Mashina detallari kursi bo'yicha multimediyali elektron o'quv qo'llanma. Davlat patent idorasi guvohnomasi № DGU 01470 T.: 2008.
8. Дуйсенбоев Б.А. Развитии содержания профессионально –педагогического образования учителя труда в вузе – Алматы, Гильи, 1985 –350 С.